

TA'LIM SIFATINI TA'MINLASHNING ILG'OR USULLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Z. Hamzayeva ¹

Annotatsiya:

Onlayn ta'lim usuliga yildan yilga o'qituvchi va talabalar tomonidan e'tibor va qiziqish ortib borayotgan bo'lsada, bu ta'limning kamchiliklari va qiyinchiliklari sezilarli darajada ko'pdir. Bu tezisda onlayn o'qitish va organishning ta'limdagi o'rnini va dolzarb muammolari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: masofaviy ta'lim, onlayn o'qitish, innovatsion ta'lim, masofaviy ta'lim muammolari, innovatsiya

doi: <https://doi.org/10.2024/gvwes723>

Dunyo bo'ylab Covid-19 pandemiyasi masofaviy o'qitish va o'rganish jarayonini yoyilishiga va rivojlanishiga katta hissasini qo'shdi. Masofaviy ta'lim talabalarga va o'qituvchilarga sifatli ta'limga kirish va ular bilan shug'ullanish imkonini beribgina qolmay, ularga o'zlarining uylarida qulaylikni his qilib dars qilishlari imkonini yaratib beradi. Ayniqsa, yarim va to'liq stavkada ishlovchi talabalar uchun masofaviy ta'lim joy, vaqt tanlamasligi ular uchun qo'l keladi.

Onlayn o'rganish mavzusiga yildan yilga e'tibor va qiziqish ortib bormoqda. Dunyo tan olgan universitetlar va ta'lim dargohlari shuni tushunib yetishdiki, bilimni yetkazish orqali ta'lim sifatini, narxini va foydalilik darajasini oshirish mumkin.

Yangi avlod o'rganuvchilari uchun onlayn ta'lim interaktiv va jalb qiluvchi metod bo'ladi deb o'ylangandi. Ammo natijalar buni teskarasini ko'rsatdi. Oxiri yo'q ma'lumotlar, soatlab vaqtni oluvchi vazifalar va topshiriqlar talabalarning motivatsiyasi va o'ziga bo'lgan ishonchni yo'qotishiga sabab bo'ldi. Har bir talaba uchun ko'p miqdorda vazifalar berilsada, o'qituvchilar kunlik konsultatsiya berishlari, va talaba bilan individual yondashishlari talab etiladi. O'qituvchi va talaba o'rtasida jismoniy so'zlashuvning yo'qligi masofaviy ta'limning yana bir dolzarb muammosidir. Barcha vazifalar onlayn tarzda topshirilgani uchun noqonuniy holatlarga olib kelishi mumkin: ko'chirish yoki plagiartga qo'l urish.

Talabalar odatda o'zlari hoxishlariga ko'ra yoqtiradigan mashg'ulotlarni qilishni yoqtiradilar, masofaviy ta'lim esa ularga istagan kurslarini tanlash ularga yozilish va o'qish imkoniyatini beradi. Masofaviy ta'limning asosiy qurollaridan biri bu shaxsiy kompyuter va internet tarmog'i hisoblanadi.

Xuddi shunday, multimedia ma'lumotlarining keng doirasi o'quvchilarga o'zlarining shaxsiy va oldingi tajribalari bilan bog'liq bo'lgan bilimlarni izlashga va ularni fanlararo treningga jalb qilishga imkon berishi aniqlandi.

Masofaviy ta'limning moslashuvchanligi va arzonligi kabi afzalliklarini ko'rish oson bo'lsa-da, talabalar uchun masofaviy ta'lim bilan bog'liq bo'lgan muammolarni yoddan chiqarmaslik birdek muhimdir. Maktab o'quvchilaridan tortib aspirantlargacha, barcha yoshdagi elektron o'quvchilar virtual ta'limga xos bo'lgan to'siqlarni yengib o'tishlari kerak, masalan, vaqtni behuda sarflaydigan chalg'ituvchilarga; masalan reklamalar yoki keraksiz

¹ Hamzayeva Zebo Murodjon qizi, Qashqadaryo viloyati, Qarshi tumani, Ko'chabog' 18

vaqtni oluvchi foydasiz saytlarga. India Today (2020) habar berishicha, talabalar uchun eng katta to'siqlardan biri bu, internet tezligining kamligi, va bu ularga bir qancha muammo tug'diradi: ma'lumotlarni ko'chirish, saqlab olish, xira va sifatsiz videolarni namoyish qilish va ko'rish, dars vaqtidagi dialoglarda uzilishlar bunga misol bo'la oladi. Bu ularni tengdoshlaridan orqada qolishga ham sababchi bo'ladi. Darslar vaqtidagi qisqa uzilishlar talabalarda mavzuni to'laligicha tushunmaslikka olib keladi. Internet tezligi past bo'lganda dars davomidagi ularning videolarining sifatsiz va qotib qolishi bunga misol bo'ladi. Ba'zi holatlatda ularning shaxsiy kompyuterlari yo'qligi uchun, Resurs markazlariga murojaat qilishadi.

Talabar hattoki asosiy yoki oddiy programmalarda amaliyot o'tay olishmaydi: Microsoft Word yoki Power Point. Texnik bilimlarning bo'lishi talabalarga darsda aktiv qatnashish va vazifalarni tog'ri bajarishlari imkonini beradi. Avvalo, bu muammolarga duch kelmaslik uchun o'qituvchilarga IT bilimlarini o'rgatish, darsdan oldin o'qituvchi o'zining talabalariga qisqa video rolik yoki prezentatsiya usulida talabalarga qisqacha masofaviy ta'limda kerak bo'ladigan bilimlarni ulashishi va o'rgatishi lozim.

An'anaviy sinf o'qitishdan ya'ni yuzma yuz ta'limdan kompyuterga asoslangan ta'limga o'tish talabalar uchun qiyinchilik uyg'otadi. Masofaviy ta'lim foydalarini tushinishda o'zlarining tengqurlari bilan muhokama qilish ularning bu ta'limga bo'lgan qiziqishlarini o'zgartiradi, bundan tashqari darslarga yaxshiroq tayyorgarlik ko'rishlariga yordam beradi. Masofadan o'qitish usulida o'quvchi va o'qituvchi bir-biridan masofa bilan ajralgan bo'lsa ham doimiy muloqot saqlanib qoladi. Bu o'qitishni nazorat qilishning alohida usuli bo'ladigan chat videolari, saqlangan ovozli xabarlar, elektron pochta va internet texnologiyalari yordamida amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, vaqtni tog'ri boshqara olish masofaviy ta'lim oluvchilar uchun qiyinchilik tug'diradi, chunki onlayn kurslar, ma'ruzalar va vazifalarni bajarish ko'p vaqt va intensiv mehnatni talab qiladi. Onlayn ta'lim qatnashuvchilari uchun o'z-o'zini rag'batlantirish ham muhim omillardan biridir. Dastlab o'quvchilar kurs boshida ro'yxatdan o'tishadi, ko'p vaqt o'tmay muammolarga duch kelishadi va asta sekin tengqurlaridan orqada qolishadi, bu esa ko'p holatlarda kursni tark etish fikrini uyg'otadi. Bunday vaziyatda ularga onlayn kurslarga bo'lgan ijobiy fikr va o'ziga motivatsiya qiyinchiliklarni yengib o'tishda yordam beradi.

Masofaviy ta'limni joriy etishda sifatli mazmun, o'qitish uslubi, materiallari, bilim va ko'nikmalarni tekshirish usullari va eng muhimi, malakali akademiklar ta'minlanmasa, yetarli bo'lmaydi. O'quvchilarning xulq-atvoriga va umuman ularning ta'lim taraqqiyotiga ta'sir qiluvchi muhim parametr aynan o'rganganlarini amaliyotda qo'llash muvaffaqiyat kaliti ekanligi ta'kidlanadi. Tadqiqotlarga ko'ra elektron ta'lim to'siqlarining uch turi ko'rsatilgan. Ular quyidagi to'siqlarni o'z ichiga oladi:

- Ta'lim oluvchilar - moliyaviy muammolar, motivatsiya muammolari, o'z yutuqlarini baholash bilan bog'liq muammolar, tengdoshlar ajralib turish, masofaviy ta'limda yetarli ko'nikma va tajribaga ega bo'lmagan, mehr va ijtimoiy sohada muammolarga duch kelishi mumkin;

- O'qituvchilar - elektron ta'lim muhiti haqida yetarli bilimga ega emasligi, turli sohalardagi yutuqlarni baholashdagi qiyinchiliklar kabi to'siqlar bilan;

- O'quv rejasi - noaniqlik, sifat, resurslar, o'qitish jarayoni, baholashga doir muammolar;

Masofaviy ta'lim ayniqsa, quyidagi toifadagi o'rganuvchilar uchun samaralidir: allaqachon bilim, ko'nikmaga ega bo'lgan eng qobiliyatli talabalar; muhim bilim va ta'lim dasturini qisqa vaqt ichida yakunlashni xohlovchi talabalar; o'qishni tadbirkorlik faoliyati

bilan birlashtirishni istagan talabalar; kasbini o'zgartirmoqchi bo'lgan shaxslar; o'z vaqtida ta'limni tugatmagan shaxslar; kollej yoki universitetga kirishga tayyorlanayotgan shaxslar; chet ellik ishchilar va fuqarolarning, harbiylar yoki doimiy ko'chib yuruvchi oilalarning farzandlari uchun, jismoniy, fiziologik yoki hissiy jihatdan muammolari bor bo'lgan talabalar uchun samarali va foydalidir.

Masofaviy ta'lim texnikasining asosiy g'oyasi o'quv axborot muhitini kompyuter axborot manbalari, elektron kutubxonalar, video va audio to'plamlar, kitoblar va qo'llanmalar orqali yaratishdir. Bunday ta'lim muhitining tarkibiy qismi ham shug'ullanuvchilar, ham o'zaro hamkorlikni zamonaviy telekommunikatsiya vositalari yordamida amalga oshiradigan o'qituvchilardir. Bunday ta'lim muhiti mustaqil ravishda ham, o'qituvchilar rahbarligida noyob imkoniyatlarni beradi.

Bugungi globalizatsiya davrida masofaviy ta'lim, korxonalar, muassasalarga o'zlariga mutaxassislar tayyorlashda, ularni qayta tayyorlashda, ularga kerakli kvalifikatsiyalar bilan ta'minlashda, ularning bilim darajalarini va ko'nikmalarini yuqori darajada ushlab turishda muhim o'rin egallaydi. Masofaviy o'qitishni amalga o'qitishni amalga o'qitish orqali aholining umumiy bilim darajasini va sifatini oshirish mumkin. Bu yo' orqali aholining barcha qatlamlarini bilim olishdagi talablarini qondirish mumkin bo'ladi. Bilimlarni o'z vaqtida keng aholiga arzon, qulay va sifatli tarqatish imkoni mavjud. Bir qancha ta'lim muhitini yaratib, unda barcha bilimlarni o'rganish, o'rgatish va ulashish va barchasini mujassamlashtirish imkoni mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Safiullin Lenara, Fatkhiev Arturb, Saipullaev Ullubic , Bagautdinova Nailya (2013) . *Problems And Decision in The Field of Distance Education Kazan Federal University, Kazan, 420008, Russia*
- [2]. Akhmedov, B. A., & Khasanova, S. K. (2020). *Public education system methods of distance in education in development of employees. Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*
- [3]. Kinga Stecuła and Radosław Wolniak (2022). *Advantages and Disadvantages of E-Learning Innovations during COVID-19 Pandemic in Higher Education in Poland. Journal of Open Innovation: Technology, Market, and Complexity.*